

**MAHALLADA SODIR ETILAYoTGAN BEZORILIK
JINOYaTINING ALOHIDA BELGILARI**

B.E.Berdialiev – *O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig‘i, polkovnik, yuridik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola “bezori” va “bezorilik” hamda bezorilik jinoyati tushunchalari, uning alohida belgilari, sodir etilishining usullari yoritilgan. Shuningdek, jinoyat bilan bog‘liq tushunchalar qonunchilikda va boshqa normativ hujjatlardagi ta’riflar bilan tahlillangan. Jinoyatning ob’ektiv va sub’ektiv tomonlari amaliy asoslantirilib ochib berilgan hamda xulosalangan.

Kalit so‘z: Bezorilik, bezori, mahalla, jinoyat, huquqbuzarlik, qonun, javobgarlik, qasd, jamiyat, shaxs, inson, jinoyat kodeksi, islohot, jamoat, jamoatchilik, tan jarohati, zarar, xarakat.

**ОСОБЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СВЯЗАННЫХ С
ХУЛИГАНСТВОМ, СОВЕРШАЕМЫХ В МАХАЛЛЕ**

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются понятия «хулиган» и «хулиганство», а также преступление хулиганство, его отличительные признаки и способы совершения. Также были проанализированы понятия, связанные с преступностью, с определениями, содержащимися в законодательстве и других нормативных документах. Раскрываются и обобщаются с практическим обоснованием объективные и субъективные стороны преступления.

Ключевые слова: Хулиганство, хулиганство, махалла, преступление, правонарушение, закон, ответственность, умысел, общество, личность, человек, уголовный кодекс, реформа, сообщество, общественность, телесные повреждения, ущерб, действие.



SPECIFIC SIGNS OF THE CRIME OF HARASSMENT COMMITTED IN THE MAHALLA

ANNOTATION. *This article discusses the concepts of "hooliganism" and "hooliganism" and the crime of hooliganism, its distinctive features, and methods of commission. Also, the concepts related to the crime are analyzed with definitions in legislation and other regulatory documents. The objective and subjective aspects of the crime are revealed and summarized with practical justification.*

Keywords: *Hooliganism, hooliganism, crime, offense, law, responsibility, intent, society, person, human, criminal code, reform, community, public, bodily injury, damage, action.*

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan bezorilik jinoyati jamoat tartibini buzishdan iborat bo‘lgan faol harakatlar orqali sodir etiladi. Ya’ni, bezorilik – jamoat tartibini qo‘pol ravishda buzish, jamiyatda o‘rnatilgan normalarga hurmatsizlikning ochiq ifodasi tushuniladi. Jumladan, bezorilik oqibatida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-modda, 2 qism “e” bandi), bezorilik (JK 277-modda), qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘tkazish (JK 278-modda) va shu kabi jinoyatlardir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX bobida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, uning 277-moddasida bezorilik va qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘tkazish (JK 278-modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, “Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilishi” nazarda tutilgan¹.

Bezorilik – jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo‘lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/acts/111453>



do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etiladi"². Bezorilik jinoyatining mazmun-mohiyati qonunchilik va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda berilgan ta'riflarda insonga shikast yetkazishga qaratilgan bo'lib, uning qay shakl va uslubda sodir etilgani ilmiy jihatdan ochib berilgan. Shu bilan birga bezorilik jinoyati tushunchasiga mutaxassis olimlar ham turlicha fikrlar yuritadi. Jumladan, M.N.Rustamboevning fikricha, "Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik mo'ljallanmagan joylarda alkogolli ichimliklarni ichish, fuqarolarga haqoratomuz muomala va shilqimlik qilish, uyat so'zlar bilan so'kinish, jamoat joylarida ochiqchasiga hojat chiqarish, yalang'och holda bo'lish, hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, o'simliklarga zarar yetkazish va h.k.larda ifodalanadi³. I.Ya. Kozachenko bezorilik jamiyat va uning a'zolariga hurmatsizlikda namoyon bo'ladi. Bu hurmatsizlik turli shakllarda ifodalanib, har doim ham shaxsiy manfaatlar, shu bilan bir qatorda, mulkiy huquqlarga zarar yetkazish xavfini tug'diradi⁴, deya ta'kidlaydi. S.A. Tararuxin bezorilik oqibatida faqat bitta ob'ektga – jamoat tartibiga zarar yetkaziladi.⁵ Mazkur ta'riflardan kelib chiqib, avvalo "bezori" va "bezorilik" tushunchalariga aniqlik kiritib olish zarur.

Shu o'rinda ilmiy adabiyotlarda "bezori" va "bezorilik" so'ziga turlicha tushintirishlar beriladi. Bir necha olimlarning fikricha bu so'z ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, XVIII asrda Londonda Irlandlik Xulli yashagan bo'lib, bir qator to'dalarga qo'shilib to'polonlar qilgan. (Shauka, to'da, inglizchasiga gang) boshqalarning fikricha bezori atamasi qadimgi rus tilida "xula" va fransuz "gens" so'zlaridan kelib chiqqan. Bezori laqabi krepostnoy xristiyanlarga, xizmatkorlarga va boshqacha kamsitmoqchi bo'lgan shaxslarga berilgan. Uchinchi nuqtaiy nazar ham bor. R.I. Lyublinskiyning axamiyat berishicha Parijda jamiyatning tinchligini

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, 1-band, 1-xatboshi.lex.uz // www.lex.uz/

³Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 208 bet.

⁴ Козаченко И.Я. Уголовное право. Особенная часть. Учебник. –М.: 2008. – С. 388.

⁵ Гаухман Л.Д. Объект преступления // Уголовное право. Часть Общая. Часть особенная. М., 1999. – С.94



buzganlarni apashi Londonda bo'lsa bezorilar deyishgan. Apashi va bezorilar Amerikadan ikkita qiziltanlilar, Yevroralik bosqinchilarning qarama-qarshi qarorlarini ko'rsatuvchilar bo'lib eng salbiy sifatini ifodalashgan. R.I. Lyublinskiyning fikricha ushbu ikki shaxslar Parijda va Londonda ijtimoiy odobni, tartibni va tinchlikni buzgan deb topilgan.

Bezorilik rus tilidan "xuliganstvo" tarzida tarjima qilinsa-da, mazkur atama ruscha hisoblanmaydi. "Xuliganstvo" atamasi London politsiyasining 1894-yilgi raportida qayd etilgan⁶ bo'lib, mazkur atamaning kelib chiqishi borasida turli versiyalar mavjud. Ularning biriga ko'ra mazkur atama XIX asrda Londonda yashagan irlandiyalik o'g'ri va bezori Ratrik Xuligen nomi bilan bog'liq⁷. Yana bir versiyaga ko'ra mazkur atama irlandcha "houlie" atamasi bilan bog'liq bo'lib, mazkur atama "alkogolli maishat" ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga "xuligan" atamasini XIX asrda Londonning Aylington hududida jinoiy faoliyat olib borgan "Nooleu gang" jinoiy guruhi nomi bilan bog'lashadi⁸.

Bezorilik jamiyat xavfsizligiga katta xavf tug'diruvchi jinoyatlardan biri hisoblanadi⁹. G.Junushovanning fikricha, "bezorilik – bu fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini va sog'lig'iga, ularning va korxona, muassasa, tashkilotlarning mulkiga xavf soladigan, jamoat tartibini buzadigan o'ziga xos jinoyat hisoblanadi"¹⁰.

Vu borada N.Shuruxnov bezorilik jamiyatda shakllangan jamoat tinchligi, axloq qoidalari, o'zaro hurmat, fuqarolarning o'zini lozim tarzda tutishida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazishini qayd etgan¹¹.

Bezorilik tarkibi tez-tez o'zgarib turganligi, shaxsga qarshi jinoyat sifatida qaralganligi tasodif emas.

⁶Daily News (London), Tuesday April 24. 1894.

⁷The Penny Illustrated Paper and Illustrated Times Saturday august –13, 1989.

⁸Жунушова Г.Б. Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ.ред. Л.Ч.Сыдыковой. – Бишкек: КРСУ, 2014. – С.21.

⁹Т.В.Андрей. Преступления против общественного порядка: криминализация, систематизация, уголовно-правовое содержание: диссертация ... кандидата юридических наук: 12.00.08 / Т.В.Андрей; [Место защиты: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Кубанский государственный аграрный университет" http://kubsau.ru/science/dep_diss/24796/]. – Краснодар, 2015. – 21 с.

¹⁰Жунушова Г.Б. Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ.ред. Л.Ч.Сыдыковой. – Бишкек: КРСУ, 2014. – С.22.

¹¹Шурухнов Н.Г. Криминалистика: Учебник. – М., 2008. – С.497.



Shu bilan bir qatorda unda bezorilikning zamonaviy tushunchasi, ya'ni "tan jarohati", "shikastlar yetkazish", "xaqoratlash" kabilarni harakterlovchi me'yorlar bo'lgan. Ko'plab jinoyat kodekslari, jumladan Rolsha JK, bunday tarkibni umuman ko'zda tutmaydi. Nyu York Shtatining JK qotillik va vandalizm bilan davom etuvchi guruhli tartibbuzarlik deb qabul qilgan.

Xozirda ko'plab olimlar bezorilik o'zida mustaqil, alohida jinoyat tarkibini ifodalaydi degan fikrdalar. Shu munosabat bilan I.S.Nou xaqli ravishda, hozirgi kunda kriminalistlarning – nazariyotchilarning va amaliyotchilarning hech qaysi biri kodeksda bezorilik jinoyatining mustaqil tarkibi sifatidagi tushunchasining borligini rad etmaydilar.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning turi sifatida bezorilikka qarshi kurashish amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, bezorilik nafaqat boshqa jinoyat belgisi, balki boshqa jinoiy harakatlardan farq qiluvchi, va xattoki bezorilik harkatlari asosida sodir etiladigan alohida jinoyatdir.

Ushbu jinoyat tarkibidagi "bezorilik – maqsadsiz, alohida fuqarolarga yoki umuman jamoatchilikka hurmatsizlikda bo'lish va jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlik bilan kuzatilgan bezorilik harakati" hisoblangan va u jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar tarkibiga kirgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi jinoyat qonunchiligi bezorilikning barcha turlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aniqlikni keltirib bermaydi. Bunday aniqlashda, ko'rinib turibdiki, bunday xarakatlar jamoat tarkibini va osoyishtaligini buzishiga umumiy ko'rsatmalar berilgan xolos. Biroq, bu belgi bunday shaklda bir qator boshqa jinoyat deliktlariga ham xosdir. Shu sababli huquqshunoslar, mayda va jinoiy jazolanadigan bezorilik tushunchasini shakllantirishda, ular orasida aniq chegarani belgilash imkonini beruvchi belgilarga diqqatni qaratadi.

Bezorilikni aniqlash asosida qonunda bezorilikni sodir etish obe'kti va muvofiq harakatlarni amalga oshirishga yo'naltirilganlikni harakterlovchi belgilar olingan. Aynan ular bezorilikning jamoatchilikka xavfi darajasini va spesifikatsiyasini jinoyat ishi sifatida xarakterlaydi. Vu aniqlashda birinchi navbatda shu narsaga diqqat qaratiladiki, bezorilik harakatlari jamoat tartibiga xavf soladi.



Jamoat tartibini buzish ko'plab jinoyatlar uchun harakterlidir, chunki jamoat tartibi tushunchasining o'zi juda keng tushunchaga ega va bir qator jamoat munosabatlarini o'z ichiga oladi, ularning har biri bu yoki boshqa jinoyatning obekti sifatida olinishi mumkin. Bu holda jamoat tartibiga zarar boshqa jamoatchilik munosabatlariga zarar yetkazish orqali sodir bo'ladi. Bezorilikka shu narsa harakterliki, jamoat tartibi bu yerda jinoyatning bevosita obe'kti sifatida qaraladi va bu jamoat munosabatlariga zarar yetkazish fakultativ xarakterga ega.

Bezorilik harakatlarining ikkinchi belgisi bu shundan iboratki, ular jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlikni ko'rsatadi, fuqarolarga zo'ravonlikni qo'llash, yoki uni qo'llash orqali qo'rqitish, shu bilan birga begona mulkni yo'q qilish yoki zarar yetkazish kiradi. Jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlik bu – umumiy istiqomat qilish qoidalariga va odobga nisbatan qo'pol, ommaviy ravishdagi ehtiyotsiz munosabatlari tushuniladi.

Va nihoyat, bezorilik uchun harakterli narsa ikkala belgining uyg'unlashuvidan iborat: jumladan, jamoat tartibining o'ta qo'pol buzilishi va jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlik. Faqatgina ikkala belgini sodir etish uni jinoiy jazolanadigan harakat sifatida qarash imkonini beradi.

Bezorilik tushunchasini shakllantirib, qonunshunos nafaqat uning obektiv belgilariga xarakteristika beradi, balki harakatlarning ongli ravishdagi harakteriga ham urg'u beradi. Sube'kt harakati bezorilikning zarur belgilarini, jamoat tartibining o'ta qo'pol buzilishi va jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlikni o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan bezorilikni sodir etishda harakatlarning obe'ktiv yo'naltirilganligi aniqlanadi. Agarda sodir etilgan harakatlarda jamoat tartibining o'ta qo'pol buzilishi va jamoatchilikka yaqqol hurmatsizlik belgilari obe'ktiv ravishda mavjud bo'lsa, lekin harakatlarning bunday natijasi sube'kt tomonidan oldindan ko'zlanmagan bo'lsa, bezorilikni sodir etish tarkibi bo'lmaydi. Qonunda shakllantirilgan bezorilik tushunchasining tahlili shunday xulosaga kelishga imkon beradiki, bu tushuncha o'zida ko'rilayotgan jinoiy xarakatning alohida belgilarini o'z ichiga oladi va uni boshqa jinoyatlardan va ma'muriy huquqbuzarlikdan aniq chegaralash imkonini beradi.



Jinoyatchilikka qarshi kurashishda qonunchilikka qat'iy amal qilish sodir etilgan harakatning to'g'ri huquqiy kvalifikatsiya qilish uchun zarur shart sifatida qaraladi. Bunday kvalifikatsiya faqat jinoyat tarkibi belgilarini to'liq va xar tomonlama aniqlash, ularni muvofiq jinoyat belgilaridan chegaralash mumkin xolos. Bu albatta barcha jinoyatlarga va xususan bezorilikka tegishli. Vezorlik, boshqa jinoyatlardan farqli o'laroq, boshqa qonunbuzarliklar bilan ko'plab aloqalik nuqtalariga ega va faqat diqqat bilan olib borilgan tahlil bezorilikning mohiyati va belgilari to'g'risida aniq tushuncha olish imkonini beradi.

Bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, bunday jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan farqlashda, aybdor qasdining mohiyati va nimaga qaratilganidan, sodir etilgan harakatning motivi, maqsadi va muayyan holatlarga e'tibor berish lozim hisoblanadi. Amaliyotda bezorilik motivini aniqlash va boshqa motivlardan (rashk, qasd va hk.) farqlash mezonlarini bilmaslik ko'pgina jinoyatlarning noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Rlenuning "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2002-yil 14-iyundagi Qaroriga ko'ra, bezorilik, asosan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar tushunilishi aytib o'tilgan¹².

Bezorilikka ta'rif berar ekan, bezorilik - ko'pchilikning tinchligini buzish, odamlarni bezdiruvchi xatti-harakat deyiladi. Shaxsning jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga oshkora hurmatsizlik ko'rsatishdan iborat xatti-harakati¹³. Bezorilik ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy tartibni, ko'pchilikning tartibini buzayotganligini anglashi lozim hisoblanadi¹⁴, deb ko'rsatiladi.

Bezorilik jinoyati va mayda bezorilik huquqbuzarligi o'rtasidagi farqni aniqlashda, ushbu jinoyatning obe'ktiv tomonini ifodalovchi shaxsni urish-do'rroslash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish harakatlari bor

¹² "Bezorilik ishlari buyicha sud amaliyoti tugrisida"gi 2002-yil 14-iyundagi karor, 1-band, 1-kism. [lex.uz //](http://www.lex.uz//)

¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Begmatov E. va b. Madvaliyev A. taxriri ostida. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.- Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. -B.212.

¹⁴ "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. [lex.uz //](http://www.lex.uz//)



yoki yoʻqligiga eʼtibor qaratish lozim boʻladi. Ulardan birontasining yoʻqligi harakatni mayda bezorilik deb baholashga asos boʻladi. Jumladan, mayda bezorilik jamoat joylarida uyatli soʻzlar aytish, soʻkinish, behayo xatti-harakatlar qilish, odamlarga shilqimlik qilish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-oshiq mensimaslik harakatlarida namoyon boʻlsa, bezorilik jinoyatida aybdor harakatlari bevosita jamoat tartibi, shaxs sogʻligi, oʻzganing mulki kabi Jinoyat kodeksi bilan qoʻriqlanadigan obeʼktlarga tajovuz qilishda ifodalanadi.

Bundan koʻrinib turibdiki koʻplab jinoyatlar jamoat joylarida, jamoat tartibini buzib sodir etiladi. Mazkur jinoyatlardan eng koʻp tarqalgani mayda bezorilikdir.

Jamoat tartibi mayda bezorilikning qasd qilish obeʼkti hisoblanadi. Jamoat tartibi jamoat joylarida huquq meʼyorlarini saqlashga asoslangan munosabatlardir. Jamoat tartibi faqat huquqiy meʼyorlarga emas, balki boshqa ijtimoiy meʼyorlar: axloq, urf-odat, jamoat tashkilotlarining meʼyorlari bilan ham mustahkamlanadi. Shu sabab bu borada ham mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va roʻyobga chiqarishni taqozo etmoqda¹⁵.

Huquqiy meʼyorlar asosiy rol oʻynaydi, chunki tartibni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni, jazoning turi va meʼyorini shular belgilaydi. Aybdorning xatti-harakati jamiyatning, tevarak-atrofdagi fuqarolarning manfaatlarini yaqqol mensimaslikdan, madaniy saviyasining pastligidan, axloq va odobning mavjud qoidalarini eʼtiborga olmaslikdan dalolat berib turadi¹⁶.

Fuqarolar osoushtaligi va jamoat tartibini buzuvshi xatti-harakat huquqbuzarlikning obʼektiv tomonini tavsiflaydi. Bular: jamoat joylarida uyatli soʻzlar bilan soʻkinish; fuqarolarga haqoratomuz tegajogʻlik qilish, yaʼni boshqa shaxsning obroʻ eʼtibori, izzat-shaʼnini haqoratlovchi hamda ularning oromini buzuvchi shilqimlik xatti-harakati boʻlishi mumkin. Bunga, shuningdek, fuqaroni inson qadr-qimmatini haqoratlovchi suhbatga zoʻrlab tortish, shilqimlik bilan uning qoʻlini siltash yoki kuch bilan qoʻlidan ushlab, bosh kiyimini yulqib olish; sigareta

¹⁵ Narbutayev E., Yettibayev G. Faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash va ruxsat berish tartibotlarini yanada liberallashtirishning ayrim masalalari //Obshchestvo i innovatsii. 2021. – T. 2. – №. 8/S. – S. 385-392.

¹⁶ Qushboqov, S., & Yetmishboyev, M. (2022). Jazoni ijro etish muassasalari ishtirokida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mohiyati va ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(9), 76-80.



tutunini uning yuziga puflash va hokazolarni kiritish mumkin. Mayda bezorilik ob'ektiv tomonining muhim belgisi vaziyat, makon, vaqt hisoblanadi.

Biroq jamoatga yoki inson sha'ni niga nisbatan mensimaslik munosabati (uyatli so'zlar yozish, maysazor, gulzorlarni buzish va hokazolar) ma'lum bo'lib qolishini e'tiborga olib, huquqbuzarlik yashirinchalik bajarilgan bo'lishi mumkin. Mayda bezorilik sub'ektiv tomondan qasddan va ko'pincha oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor qonunga qarshi xatti-harakat qilayotganini tushunadi va shuning natijasida yomon oqibatga olib kelishiga – jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligi buzilishiga yo'l qo'yadi. Mayda bezorilik onda-sonda egri niyat bilan amalga oshiriladi shu bilan huquqbuzarning Sh.X.Qushboqov ta'kidlaganidek, faoliyatini olib borishdan maqsad va vazifalari yoritib berilgan¹⁷ 16 yoshga to'lgan shaxs mayda bezorilik sub'ekti bo'lishi mumkin. Mayda bezorilik JK 277-moddasida ko'zda tutilgan bezorilik xatti-harakatidan farq qiladi.

Alohida qayd etib o'tish joizki, bezorilik jinoyati JKning 277-moddasida alohida belgilangan bo'lsa-da, boshqa moddalarida aybni og'irlashtiruvchi holat sifatida keladigan bezorilikdan qanday farqi mavjud.

Bezorilik insoning shaxsi, uning mulki, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanib, odatda u hech qanday sababsiz sodir etiladi yoki arzimagan sababdan kelib chiqadi. Masalan, jabrlanuvchining bezoriga chekish uchun sigaret bermasligi yoki jamoat transportida unga joy bo'shatmasligi va hk.

Jinoyat huquqiga oid manbalarda ta'kidlanganidek, bezorilikning tajovuz ob'ekti bo'lib jamoat tartibi, ya'ni amaldagi huquq va ijtimoiy (axloq) normalariga rioya qilish orqali fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, ko'pchilikning, ommaning xavfsizligini ta'minlashga, hududdagi va ob'ektdagi jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatichi, insonlarning mehnat qilishi va dam olishlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan, shuningdek ularning sha'ni, qadr-qimmatini, milliy qadriyatlarni va ijtimoiy axloq normalarini hurmat qilish hamda ularning talablariga

¹⁷Qushboqov Sh. (2022, September). Jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida tadbirkorlikning o'rni. In Mejdunarodnaya konferensiya akademicheskix nauk (Vol. 1, No. 27, pp. 16-20).



rioya etish bo'yicha asosan jamoat joylarida vujudga keladigan va taraqqiy etib boradigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Bezorilikning ob'ektiv tomoni belgilari quyidagilarda ifodalanadi:

birinchidan, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, ya'ni shaxs o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvorning mavjudligi bilan boshqalarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga zarar yetkazada;

ikkinchidan, urish-do'rroslash, ya'ni jismoniy kuch ishlatish orqali boshqa shaxslarga badaniga shikast yetkazmagan holda zarba berish va og'riq yetkazishda;

uchinchidan, badanga yengil shikast yetkazish, ya'ni sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmaganda;

to'rtinchidan, o'zganing mulkiga shikast yetkazish yohud nobud qilish ancha zarar yetkazish, ya'ni mulkni, uning muayyan bir qismini qisman yoki butunlay yaroqsiz holga keltirish orqali zarar yetkazilishda.

Shuni alohida qayd etish joizki, tahlil qilingan "qilmishni Jinoyat kodeksi 277-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun yuqorida ko'rsatilgan oqibatlarning barchasi bir vaqtda mavjud bo'lishi talab yetilmaydi"¹⁸.

Bezorilikning sub'ektiv tomoni mazkur qilmishning qasddan sodir etilishida namoyon bo'ladi. Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq bezorilik jinoyatning sub'ekti bo'lib, 277-moddasi birinchi qismi bo'yicha 16 yoshga to'lgan 277-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari bo'yichaesa 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, turli sharoitda bir xil xatti-harakat turlicha ahamiyat kasb etadi (masalan, jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish mayda bezorilikka xos voqea, xuddi shunday xatti-harakat tantanali majlis, bayram va boshqa ommaviy tadbirlarda jinoyat tarzida jazolanuvchi bezorilik sifatida tavsiflanishi mumkin (JKning 277-moddasi 3-qismi "v" bandi). Mayda bezorilik ko'pincha jamoat joylarida amalga oshiriladi, ya'ni ommaning qabul qilish idrokiga tayaniladi.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 14.06.2002-yildagi 9-son. <https://lex.uz/docs/1452654>



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Jinoyat kodeksi 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida bezorilikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun jazo belgilangan. *Birinchidan*, mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq bezorilik: a) badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib; b) bir guruh shaxslar tomonidan; v) sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yohud qo'llab; g) o'z mazmuniga ko'ra umume'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan; d) yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan shaxs yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlab; ye) ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilishi.

Ikkinchidan, mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq bezorilik: a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan; b) o'qotar qurolni namoyish qilib, uni qo'llash bilan qo'rqitib yoki qo'llab; v) ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda; g) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yohud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/acts/111453>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, 1-band, 1-xatboshi.lex.uz .// www.lex.uz/
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 208 bet.
4. Козаченко И.Я. Уголовное право. Особенная часть. Учебник. – М.: 2008. – С. 388.



5. Гаухман Л.Д. Объект преступления // Уголовное право. Часть Общая. Часть особенная. М., 1999. – С.94
- Daily News (London), Tuesday April 24. 1894.
6. The Penny Illustrated Paper and Illustrated Times Saturday august –13, 1889.
7. Жунушова Г.Б. Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ.ред. Л.Ч.Сыдыковой. –Бишкек: КРСУ, 2014.–С.21.
8. Т.В.Андрей. Преступления против общественного порядка: криминализация, систематизация, уголовно-правовое содержание: диссертация ... кандидата юридических наук: 12.00.08 / Т.В.Андрей; [Место защиты: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Кубанский государственный аграрный университет" http://kubsau.ru/science/dep_diss/24796/].- Краснодар, 2015. – 21 с.
9. Жунушова Г.Б. Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ.ред. Л.Ч.Сыдыковой. – Бишкек: КРСУ, 2014. – С.22.
10. Шурухнов Н.Г. Криминалистика: Учебник. – М., 2008. – С.497. “Bezoriilik ishlari buyicha sud amaliyoti tugrisida”gi 2002-yil 14-iyundagi karor, 1-band, 1-kism. lex.uz // www.lex.uz
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Begmatov E. va b. Madvaliyev A. taxriri ostida. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.-Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. –B.212.
12. “Bezoriilik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. lex.uz // www.lex.uz
13. Narbutayev E., Yettibayev G. Faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash va ruxsat berish tartibotlarini yanada liberallashtirishning ayrim masalalari //Obshchestvo i innovatsii. 2021. – T. 2. – №. 8/S. – S. 385-392.
14. Qushboqov, S., & Yetmishboyev, M. (2022). Jazoni ijro etish muassasalari ishtirokida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mohiyati va ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(9), 76-80.



15. Qushboqov Sh. (2022, September). Jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida tadbirkorlikning o'rni. In Mejdunarodnaya konferensiya akademicheskix nauk (Vol. 1, No. 27, pp. 16-20).
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 14.06.2002-yildagi 9-son. <https://lex.uz/docs/1452654>